| IQTISODIY BARQARORLIKGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....                                                                                    | 457 |
| <b>Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna</b>                                                                                                                                       |     |
| ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI .....                                                          | 463 |
| <b>Murtazayev Isabek Bazarbayevich</b>                                                                                                                                       |     |
| YUQORI SAMARALI PAXTA TOZALAGICHDA MAYDA IFLOSLIKLARNI AJRATISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING OPTIMAL PARAMETRLARINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA ANIQLASH..... | 471 |
| <b>Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich</b>                                                                                                                      |     |
| MAHSULOTLAR RAQAMLI PASPORTI EKOTIZIMI VA UNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....                                                                                                   | 478 |
| <b>Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi</b>                                                                                                                                      |     |
| ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МОЮЩИХ СРЕДСТВ И МЕТОДОВ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА НАТУРАЛЬНЫХ ШЕРСТЯНЫХ ВОЛОКОН.....                                                                         | 484 |
| <b>Собиров ДаниёрХолмуродович</b>                                                                                                                                            |     |
| СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....                                                                         | 490 |
| <b>Киличева Феруза Бешимовна</b>                                                                                                                                             |     |
| KICHIK BIZNESNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA SAMARALI OMILLARDAN FOYDALANISH NAZARIYASI .....                                                            | 495 |
| <b>Imomnazarov Xurshid Ozodbekovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna</b>                                                                                                       |     |
| TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI BAHOLASH INDIKATORLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....                                                                 | 499 |
| <b>Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich</b>                                                                                                                                    |     |
| O'ZBEKISTONDA TURIZM SOXASIGA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI TA'SIRI.....                                                                                              | 504 |
| <b>Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich</b>                                                                                                                                      |     |
| O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                     | 508 |
| <b>Shernayev Akbar Aqmirzayevich</b>                                                                                                                                         |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI .....                                                                              | 514 |
| <b>Adilov Mirkomil Miralimovich</b>                                                                                                                                          |     |
| IDORALARARO INTEGRATSIYANING NAZARIY MODELLARI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI .....                                                                                | 520 |
| <b>Ashirov Jamolbek Shuxrat o'g'li</b>                                                                                                                                       |     |





# IDORALARARO INTEGRATSIYANING NAZARIY MODELLARI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI

**Ashirov Jamolbek Shuxrat o'g'li**

Soliq qo'mitasi Axborot-kommunikatsiya  
texnologiyalari departamenti davlat soliq bosh inspektori  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
"Soliq va soliqqa tortish" kafedrası mustaqil tadqiqotchisi  
ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-7555-6754>  
E-mail: jamolbek.ashirov@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada idoralararo integratsiyaning nazariy modellari, davlat boshqaruvidagi ahamiyati va xalqaro tajriba, shuningdek, boshqa vazirlik tashkilotlari ma'lumotlari asosida soliq hisobotlarini haqqoniy va to'g'ri topshirilishining tashqi manba ma'lumotlari asosida avtomatlashtirilishi, inson omilini kamaytirish orqali davlat budjetiga tushumlarni oshirish ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Soliq munosabatlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, korrupsion omillar, idoralararo integratsiya, tashqi manba, axborot tizimlari, metodologik asoslar, nazariy modellar.

**Abstract.** This article presents theoretical models of interdepartmental integration, its importance in public administration, and international experience, as well as the possibility of increasing revenues to the state budget by fully automating taxpayer reports based on external source data, based on the fair and correct submission of tax reports based on data from other ministerial organizations, and reducing the human factor.

**Keywords:** Tax relations, information and communication technologies, corruption factors, interdepartmental integration, external sources, information systems, methodological foundations, theoretical models.

**Аннотация.** В статье представлены теоретические модели межведомственной интеграции, ее значение в государственном управлении и международный опыт, а также возможности увеличения поступлений в государственный бюджет за счет полной автоматизации отчетности налогоплательщиков на основе внешних исходных данных, на основе справедливой и корректной подачи налоговой отчетности на основе данных других министерских организаций, а также снижения человеческого фактора.

**Ключевые слова:** Налоговые отношения, информационно-коммуникационные технологии, коррупционные факторы, межведомственная интеграция, внешние источники, информационные системы, методологические основы, теоретические модели.

## KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida, soliq siyosatini samarali tashkil etish va raqamlashtirish tadbirkorlik subyektlari uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, soliq to'lovchilarining raqamli ko'nikmalarini yaxshilash, raqamli ma'lumotlarni boshqarishda yangi yechimlarni joriy etish va mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotni kamaytirish muammoli masalalar sifatida qolmoqda.

Globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar davrida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish zaruriyati keskin ortib bormoqda. Bunda idoralararo integratsiya muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Idoralararo integratsiya davlat organlari va tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, ma'lumot almashinuvi va resurslardan kompleks foydalanish mexanizmlarini anglatadi.

Hozirgi davrda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish va aholiga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yaxshilash jarayonida idoralararo integratsiya alohida ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari davlat organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, ma'lumot almashinuvini tezlashtirish hamda qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishga yo'naltirilgan. Shu nuqtayi nazardan, idoralararo integratsiyaning nazariy modellari davlat boshqaruvi tizimining barqarorligi, ochiqligi va samaradorligini ta'minlashda muhim vosita sifatida qaraladi.



“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq, O‘zbekistonning barcha sohalarda, jumladan soliq sohasida ham, raqamli transformatsiyani amalga oshirish rejalashtirilgan. Strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatni raqamli texnologiyalar asosida yangilash hamda shu orqali iqtisodiyotning samaradorligini, shaffofligini va raqobatbardoshligini oshirishdir. Strategiya doirasida soliq sohasidagi muammolarni hal etish va ularni raqamli transformatsiya jarayoniga integratsiya qilish, nafaqat soliq sohasining, balki butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri - mamlakatni raqamli rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqishga yordam beradi [1].

Integratsiya tushunchasi umumiy ma’nodagi turli tizimlarning yagona maqsad yo‘lida birlashuvi sifatida izohlanadi. Davlat boshqaruvida esa bu jarayon davlat organlari, idoralar va ularning tarkibiy tuzilmalari o‘rtasidagi uzviy aloqalar tizimini anglatadi. Idoralararo integratsiya nazariyasi va uning amaliy modellari davlat boshqaruvining barcha bosqichlarida barqaror taraqqiyot va sifatli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada idoralararo integratsiyaning asosiy nazariy modellari tahlil qilinib, uning davlat boshqaruvi sohasidagi o‘rni va ahamiyati yoritib beriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dunyoda moliyaviy oqimlarning notekis harakatida soliq to‘lashdan qochishning turli xil yo‘llarini izlash va undan soliq to‘lovchilar o‘z manfaatlarini yo‘lida foydalanish holatlari tez-tez uchramoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi Savdo va taraqqiyot konferensiyasi hisob-kitoblariga ko‘ra, “rivojlanayotgan mamlakatlar-yiliga 100 milliard AQSh dollari miqdoridagi moliyaviy resurslarni “foydani o‘tkazish” amaliyoti tarzida noqonuniy tarzda boshqa hududlarga o‘tkazib, milliy iqtisodiyot doirasida soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqarmoqda” [2].

N. Luhmannning tizimli yondashuvi davlat boshqaruvi ichidagi idoralararo integratsiyani sotsial tizimlar o‘rtasidagi axborot oqimlari va kommunikatsiya orqali amalga oshiriluvchi murakkab jarayon sifatida ko‘radi. Uning fikricha, samarali integratsiya qaror qabul qilishni tezlashtiradi va tizim barqarorligini ta’minlaydi [3].

Yangi davlat boshqaruvi konsepsiyasi doirasida tadqiqotchilar esa idoralararo integratsiyani davlat xizmatlari samaradorligini oshirish va byurokratik to‘siqlarni kamaytirish vositasi sifatida ko‘rishadi. Bu g‘oyalarni o‘zbekistonlik tadqiqotchilardan prof. S. T. Narzievning ishlari bilan solishtirish mumkin. U o‘z tadqiqotlarida davlat xizmatlari sifatini oshirish uchun idoralar o‘rtasidagi raqamli integratsiyani chuqurlashtirish, yagona axborot maydonini shakllantirish va raqobatbardosh budget tizimini yaratish zarurligini qayd etadi [4].

Mahalliy olimlardan O‘zbekiston davlat boshqaruvi sohasidagi integratsiya jarayonlarini o‘rganishga hissa qo‘shgan mualliflar qatorida A. Saidov, Sh. Xolboev, H. Karimov va boshqalar asarlarida idoralararo hamkorlikning huquqiy va institutsional asoslari, uning raqamli transformatsiya sharoitidagi o‘rni atroflicha tahlil qilingan [5].

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlarda idoralararo integratsiya nazariyasi turli yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan bo‘lsa-da, uning zamonaviy davlat boshqaruvi sharoitidagi ahamiyatini kompleks tarzda o‘rganish dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu bois maqolada mazkur jarayonning nazariy modellari tizimli o‘rganilib, ularning amaliy qo‘llanish imkoniyatlari tahlil etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola davlat boshqaruvi tizimida idoralararo integratsiyaning nazariy modellari va uning ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot natijalari sifatli (qualitative) tahlil asosida umumlashtirilib, idoralararo integratsiyaning nazariy modellari va ularning davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishdagi o‘rni bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Dastlab maqolada qisqacha idoralararo integratsiya mazmun mohiyatini yoritishimiz va uning modellariga to‘xtalib o‘tamiz. Idoralararo integratsiya – bu turli davlat organlari va muassasalarining o‘zaro axborot almashinuvi, xizmatlar ko‘rsatishda hamkorlik qilish va yagona maqsadlarga erishish yo‘lida koordinatsiyalashgan faoliyat yuritishidir. Integratsiya natijasida idoralar bir-biri bilan uzviy bog‘langan tizim sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtiradi, resurslardan unumli foydalanishni ta’minlaydi va davlat boshqaruvining sifatini oshiradi.

Idoralararo integratsiyaning nazariy modellariga qaraydigan bo‘lsak, ular davlat moliyaviy siyosatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, quyidagilarni tashkil etadi:



1. Gorizontal integratsiya modeli – bu model bo'yicha turli idoralar o'zaro tenglik asosida hamkorlik qiladi. Shuningdek, maqsad ortiqcha byurokratik to'siqlarni kamaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda namoyon bo'ladi. Gorizontal integratsiya ko'pincha yagona oyna (one-stop-shop) xizmatlari va raqamli hukumat loyihalarida qo'llaniladi.

2. Vertikal integratsiya modeli – bu turdagi integratsiyada yuqori boshqaruv organlari (masalan, vazirliklar, qo'mitalar) quyi bo'g'inlar faoliyatini uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Bu modelda ko'proq buyruqbozlik va nazorat elementlari ustunlik qiladi, biroq strategik qarorlarni tezkor qabul qilish imkonini beradi.

3. Tarmoq modeli – bu yondashuvda idoralar o'zaro teng huquqli hamkorlar sifatida turib, axborot texnologiyalariga asoslangan tarmoqlar orqali integratsiyani amalga oshiradi. Tarmoq modeli davlat va nodavlat sektorini bog'lovchi mexanizm sifatida samarali bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan.

4. Gibrid model – gibrid yondashuvda yuqoridagi modellar elementlari uyg'unlashadi, ya'ni o'zaro bog'liqlikda ish yuritadi. Masalan, ma'lumot almashinuvi tarmoq modeli orqali, boshqaruv esa vertikal integratsiya tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Gorizontal integratsiya modeli mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, turli idoralar yoki tashkilotlar o'zaro teng maqomda, hamkorlik va kelishuv asosida faoliyat yuritadi. Bunda idoralar o'z vakolat doirasida mustaqil qoladi, lekin o'zaro ma'lumot almashadi, qarorlar bo'yicha o'zaro maslahatlashadi.

Asosiy tamoyillari:

- Idoralar o'zaro teng huquqli hamkor sifatida ishlaydi.
- Maqsad – umumiy manfaat uchun resurs va ma'lumotlarni birlashtirishdan iborat.
- Hamkorlik ko'proq xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga asosiy urg'u qaratiladi.

Afzalliklari:

- Ortiqcha byurokratiya kamayadi.
- Qarorlar sifati oshadi, chunki ko'p idoralar tajribasi birlashtiriladi.
- Xizmatlar bir joyda (masalan, "yagona oyna") ko'rsatiladi.

Kamchiliklari:

- Qaror qabul qilish jarayoni sekinlashishi mumkin, chunki ko'p tomonlama kelishuv talab etiladi.
- Har doim idoralar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi xavfi bo'ladi.

Vertikal integratsiya modeli mohiyati yuqori boshqaruv darajasi (masalan, vazirlik yoki qo'mita) quyi bo'g'inlardagi idoralarni boshqaradi, ularni yagona tizimga birlashtirishda namoyon bo'ladi. Boshqaruv asosan buyruq va nazorat shaklida bo'ladi.

Asosiy tamoyillari:

Qarorlar yuqoridan pastga uzatiladi, ya'ni yuqori tashkilot (vazirlik, qo'mita kabi) tomonidan ularning quyi tashkilotlariga uzatiladi. Idoralar faoliyati yagona strategiyaga bo'ysundiriladi. Nazorat va hisobdorlik qattiq intizom asosida yuritiladi.

Afzalliklari:

- Qarorlar tez qabul qilinadi.
- Resurslarni markazlashgan holda boshqarish mumkin.
- Yagona siyosat va standartlar amalga oshiriladi.

Kamchiliklari:

- Quyi bo'g'inlarda tashabbus va mustaqillik susayadi.
- Yuqori darajadagi markazlashuv byurokrtiyani oshirishi mumkin.

Tarmoq (network) modeli mohiyati

Idoralar o'zaro teng hamkorlar sifatida virtual yoki real tarmoqlar orqali o'zaro integratsiyalashadi. Bu model ko'pincha axborot texnologiyalari asosiga tayanishi mumkin.

Asosiy tamoyillari:

- Tashkilotlar o'zaro axborot almashadi.
- Qattiq buyruq va bo'ysunish yo'q.
- Ko'proq moslashuvchan va ochiq tizim bo'ladi.

Afzalliklari:

- Innovatsiyalar va yangi g'oyalar tez kirib keladi.
- O'zgaruvchan sharoitga tez moslashadi.
- Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik rivojlanadi.

Kamchiliklari:

- Tarmoqdagi koordinatsiyani ta'minlash qiyin bo'lishi mumkin.
- Tarmoq ishonchiligi xavf ostida bo'lishi mumkin (axborot xavfsizligi).



### Gibrid (aralash) model mohiyati

Bu model yuqorida ta'kidlangan modellar elementlarini o'zida uyg'unlashtiradi. Masalan, strategik boshqaruv vertikal integratsiyaga asoslanadi, ammo ma'lumot almashish tarmoq modeli orqali amalga oshishi mumkin.

#### Asosiy tamoyillari:

- Boshqaruv vertikal bo'lishi mumkin, lekin axborot almashinuvi gorizonttal yoki tarmoq shaklida bo'ladi.
- Moslashuvchanlik va markazlashuv muvozanati saqlanadi.

#### Afzalliklari:

- Turli modellar kuchli tomonlaridan foydalaniladi.
- Tizim murakkab muammolarni hal qilishga moslashadi.

#### Kamchiliklari:

- Koordinatsiyani ta'minlash murakkab bo'ladi.
- Resurslar va vakolatlar bo'yicha chalkashlik yuzaga kelishi mumkin.

Idoralararo integratsiya quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Axborot texnologiyalari asosida ma'lumot almashish;
- Normativ-huquqiy asoslarni uyg'unlashtirish;
- Boshqaruv funksiyalarini qayta taqsimlash;
- Davlat xizmatlarini yagona markazdan ko'rsatish.

Axborot tizimlari integratsiyasi – bu idoralar o'rtasida o'zaro axborot texnologiyalaridan foydalangan holda real vaqt rejimida ma'lumot almashish imkonini beradi. Takidlash joizki, bu turdagi integratsiya davlat xizmatlarini avtomatlashtirish, hisobotlarni qisqartirish va xatoliklarni kamaytirish imkonini yaratib beradi.

Tashkiliy integratsiya – turli davlat idoralari vazifalari va vakolatlarini aniq belgilash orqali asosan bir-birini takrorlaydigan funksiyalarni qisqartirishga xizmat ko'rsatadi. Shuningdek, bu jarayon turli idoralar o'rtasida vazifalarning qayta taqsimlanishini, yangi ish uslublarining joriy etilishini talab qiladi.

Huquqiy integratsiya – davlat idoralari o'rtasidagi hamkorlik qonunchilik bilan tartibga solinishi lozim. Bunda ma'lumotlar almashish, vakolat doirasi, javobgarlik kabi masalalar yuridik jihatdan mustahkamlanadi.

Institutsional integratsiya – bu mavjud tashkilotlar bazasida yangi institutlar, qo'shma ishchi guruhlar, komissiyalar tashkil etishni nazarda tutadi. Ular integratsiyani boshqarish va muvofiqlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Asosan maqolamizda axborot tizimlari integratsiyasiga e'tibor qaratamiz. Bu turli tashkilotlar va idoralar tomonidan foydalanilayotgan axborot tizimlarini yagona muhitga birlashtirish, ularning o'zaro real vaqt rejimida ma'lumot almashishini ta'minlash jarayonidir. Bu jarayon orqali idoralar o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirib, takroriy ma'lumot yig'ishdan voz kechadi, xizmatlar avtomatlashtiriladi, inson omiliga bog'liq xatoliklar kamayadi (1-rasm).



1-rasm. Axborot tizimlari integratsiyasining afzalliklari



Operativlik – Ma’lumotlarni izlash va qayta ishlash vaqti keskin qisqaradi.

Ishonchlilik – Inson xatoliklarining oldi olinadi, axborot yagona manbadan olinadi.

Shaffoflik – Davlat organlari faoliyati ustidan monitoring qilish imkoniyati kengayadi.

Tahlil qilish imkoniyatlari – Yagona ma’lumotlar bazasi asosida strategik qarorlar uchun real tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Axborot tizimlari integratsiyasining asosiy texnik komponentlari quyidagilardan iborat:

- API (Application Programming Interface) – turli dasturiy ta’minotlar o’rtasida ma’lumotlar almashuvini soddalashtiruvchi interfeyslar.

- Yagona ma’lumotlar markazi (data hub) – barcha idoralarning ma’lumotlar bazalarini birlashtiruvchi markaziy tizim.

- Web-servislar va SOAP/REST protokollari – dasturlar o’rtasida internet orqali xavfsiz ma’lumot uzatishni ta’minlovchi texnologiyalar.

- Ma’lumot formatlari standartlari (XML, JSON) – ma’lumotlar almashuvini unifikatsiyalash uchun belgilangan formatlar.

Ushbu komponentlar o’zaro uyg’un ishlaganda davlat xizmatlarining avtomatlashtirilgan va integratsiyalashgan muhitini yaratadi. Masalan, fuqaroning tug’ilganlik haqidagi guvohnomasi Adliya vazirligi tizimida yaratilgach, avtomatik tarzda Soliq qo’mitasi va boshqa idoralarga uzatiladi (2-rasm).



2-rasm. Ma’lumotlar Integratsiyasi: Asosiy Maqsadlar va Foydalar

Integratsiyaning foydalari - boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tezkorlik va aniq ma’lumotlar, mehnat samaradorligining oshishi va eng katta foydalardan biri - resurslar tejash (vaqt, inson, moddiy) hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasida axborot tizimlari integratsiyasi bo’yicha amalga oshirilayotgan ishlarga nazar soladigan bo’lsak, Prezidentning bir qator qaror va farmonlarida axborot tizimlari integratsiyasi alohida e’tirof etilgan. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2012-yil 30-oktyabrdagi qarori qabul qilingan. Mazkur qaror soliq tizimida soliq va boshqa majburiy to’lovlar tushumini hisobga olish hamda nazorat qilish darajasini oshirishga, soliq tushumlarining qo’shimcha manbalarini aniqlash va soliq to’lashdan bo’yin tovlashning oldini olishga, shuningdek soliq to’lovchilar uchun ko’rsatilayotgan interaktiv xizmatlar turini kengaytirish hamda sifatini oshirishga yo’naltirilgan davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish va faoliyat samaradorligini oshirishni nazarda tutgan.

Aynan shu qaror asosida Soliq qo’mitasi boshqa vazirliklar va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari o’rtasida soliqqa tortish masalalarida, jumladan, aloqa kanallari orqali elektron axborot almashuvini tashkil etish rasman boshlangan.

Shuningdek, soliq idoralarning yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirildi:

- Birinchi bosqich (2013-yil 1-yanvargacha) – barcha hududiy davlat soliq inspeksiyalarining axborot bazasini markaziy ma’lumotlar bazasiga integratsiyalashtirildi;

- Ikkinchi bosqich (2015-yil 1-yanvargacha) – soliq to’lovchilar majburiyatlarining paydo bo’lishi (to’xtatilishi) bo’yicha vazirliklar va idoralarning ma’lumotlar bazasini Soliq qo’mitasining ma’lumotlar yagona axborot bazasiga integratsiyalashtirish ishlari amalga oshirildi.



O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari tez sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, soliq tizimi sohasi elektron axborot tizimlarini joriy etishda yetakchi sohalardan biriga aylandi. Biroq, soliq organlarining yagona va to'liq axborotga ega bo'lishi uchun boshqa davlat idoralari bilan uzluksiz va avtomatlashtirilgan axborot almashinuvini tashkil etish zarur. Shu bois, Soliq qo'mitasi uchun tashqi manba axborot tizimini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylandi.

Soliq qo'mitasi tomonidan soliq ma'murchiligi raqamlashtirish jarayoni jadal davom ettirilmoqda. Shuningdek, dastlabki eng katta qadamlardan biri bu tashqi manba axborot tizimini ishlab chiqilishi hisoblanadi.

Integratsiyaning davlat boshqaruvidagi asosiy vazifalari:

1. Ijtimoiy xizmatlar sifati va tezligini oshirish. Bunda fuqarolar turli idoralarga murojaat qilmasdan, yagona portal orqali hujjat topshiradi.

Masalan: tug'ilganlik haqida guvohnoma, nikoh, pensiya tayinlash, soliq hisoboti.

2. Idoralararo ma'lumotlar almashinuvini avtomatlashtirish. Bu orqali Soliq qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi, Sud, Adliya vazirligi, Bojxona qo'mitasi va boshqa davlat idoralar real vaqt rejimida ma'lumot almashadi. Bu byurokratiyani kamaytiradi va korrupsion xavflarni yo'qotadi.

3. Qaror qabul qilishda ishonchli analitik axborot bazasi. Raqamli ma'lumotlar tahlili asosida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqiladi.

Misol: ishsizlik darajasini real ko'rsatkichlar asosida aniqlash va choralar ko'rish.

4. Nazorat va monitoring tizimining kuchayishi. Soliq to'lovchilarning faoliyati, bojxona to'lovlari, subsidiya oluvchilar kabi holatlar avtomatik kuzatib boriladi. Bu davlat budjetining maqsadli va samarali sarflanishiga xizmat qiladi.

Integratsiya, shuningdek, raqamli davlat boshqaruvidagi asosiy yo'nalishlardan biriga aylangan. Misol tariqasida, Yagona identifikatsiya tizimi fuqarolarning barcha ma'lumotlarini yagona shaxsiy identifikator orqali aniqlash imkonini beradi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) 300+ dan ortiq xizmatlarni yagona platformada taqdim etadi. Mazkur har bir xizmat soliq, adliya, ichki ishlar, notarius va boshqa idoralar bilan integratsiya asosida ko'rsatiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Idoralararo integratsiya — zamonaviy davlat boshqaruvida samaradorlik, shaffoflik va fuqarolar uchun qulaylikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Tahlil qilingan nazariy modellar (gorizontal, vertikal, tarmoq va gibrid) turli boshqaruv sharoitlariga moslashgan bo'lib, har birining o'ziga xos kuchli va zaif tomonlari mavjud.

O'zbekiston sharoitida ham davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiya jarayonlarida idoralararo integratsiya modelini puxta o'ylangan holda joriy etish zarur.

Integratsiya jarayonida ma'lumotlarning himoyalanganligini ta'minlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalar va protokollardan foydalanish lozim.

O'zbekiston uchun idoralararo integratsiya davlat boshqaruvi islohotlarining muhim yo'nalishi bo'lib, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida xizmatlarni optimallashtirish, fuqarolar va biznes uchun qulay muhit yaratish, korrupsiya omillarini kamaytirishda o'z o'rnini topishi kerak. Shu bilan birga, integratsiya jarayonlari texnologik, tashkiliy va huquqiy jihatdan puxta asoslangan bo'lishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida, 05.10.2020-yil, PF-6079-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN). A/HRC/31/61.GE.16-00535 (R), 020216. O'zgartirilgan, 2030-yilga qadar barqaror rivojlanish maqsadlari va xalqaro moliyaviy majburiyatlar ta'sirida inson huquqlari to'g'risida yakuniy tadqiqot.
3. Luhmann, N. (2000). Sotsial'nye systemy: ocherk obshchey teorii. Moskva: Logos.
4. Narziev, S. T. (2022). "Raqamli transformatsiya sharoitida davlat xizmatlarini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari." Moliya va iqtisodiyot jurnali, 2022-yil, № 2, B. 27–34.
5. Saidov, A. (2015). Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, PQ–1843-son, 2020-yil 30-sentabr. // <https://lex.uz/docs/2079751>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, PQ–4851-son, 2020-yil 30-sentabr. // <https://lex.uz/docs/-4415356>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, PQ-4389-son, 2019-yil 10-iyul. // <https://lex.uz/docs/5031085>
9. Soliq qo'mitasi axborot portali. // <https://soliq.uz>

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)